

**ISHLAB CHIQRISHNI DIVERSIFIKASTIYALASH VA MAHSULOTLAR
EKSPORTI DASTURINI AMALGA OSHIRISH****Iragimov G‘anijon G‘ayratovich***PhD dotsenti***Qo‘shoqova Shahnoza Sherali qizi***Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti**“Menejment” fakulteti 3-kurs talabasi**e-mail: qoshoqovashahnozai@gmail.com*

Annotatsiya: *Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash mahsulotlar nomeklarurasini oshirishga hamda mahsulotlarning sifatini oshirishga o'z hissasini qo'shadi albatta. Mahsulotni diversifikatsilash ishlab chiqaruvchiga anchagina foyda keltiradi. Bu ham iste'molchi ham Ishlab chiqaruvchiga qulaylik yaratadi. Shu o'rinda shuni ta'kidlab o'tish kerakki bu export hajmiga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Mahsulotlarning chet davlatlarga export qilinishi mamlakatda katta miqdordagi daromad keltiradi va shu bilan birgalikda YaIM hajmining oshirishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va mahsulot eksporti haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan*

Аннотация: *Диверсификация производства, безусловно, способствует повышению качества продукции и качества продукции. Диверсификация продукции приносит больше выгод производителю. Это обеспечивает удобство как потребителю, так и производителю. Здесь следует отметить, что это оказывает влияние на объем экспорта. Экспорт продукции в зарубежные страны приносит стране большой доход и одновременно служит увеличению объема ВВП. В данной статье представлена информация по диверсификации производства и экспорта продукции.*

Abstract: *Diversification of production certainly contributes to increasing the variety of products and improving the quality of products. Product diversification brings more benefits to the producer. which provides convenience to both the consumer and the Producer. At this point, it should be noted that this has an impact on the export volume. The export of products to foreign countries brings a large amount of income to the country and at the same time serves to increase the volume of GDP. This article provides information on diversification of production and export of products*

Kalit so‘zlar: *Ishlab chiqarish, diversifikatsiya, mahsulot, export, mamlakatlar, daromad*

Ключевые слова: *Производство, диверсификация, продукт, экспорт, страны, доходы*

Keywords: *Production, diversification, product, export, countries, income*

KIRISH

Ishlab chiqarish — jamiyatning yashashi va taraqqiy etishi uchun zarur bo‘lgan moddiy boyliklar (turli iqtisodiy mahsulotlar)ni yaratish jarayoni; ishlab chiqarish omillarini iste‘mol va investitsiyalar uchun mo‘ljallangan tovarlar va xizmatlarga aylantirish. Ishlab chiqarish inson hayotining tabiiy sharoiti va boshqa faoliyat turlarining moddiy asosidan iborat. Kishilik jamiyati taraqqiyotining hamma bosqichlarida Ishlab chiqarish zarur.²⁰

Diversifikatsiya (lotincha diversifi catio so‘zidan olingan bo‘lib— o‘zgarish, xilma-xil taraqqiyot degan ma‘noni anglatadi) - korxonalar (birlashma)larning faoliyati sohalari va ishlab chiqaradigan mahsulotlari turining kengayishi, yangilanib turishi tushuniladi. Bu jarayonning maqsadi risklarni kamaytirish, bozor talabiga moslashish, raqobatbardoshlikni oshirish va yangi o‘shirish imkoniyatlarini yaratish, ishlab chiqarishda yuqori samaradorlikka erishish, iqtisodiy foyda olish, bankrotlikka barham berish va boshqa maqsadlarda amalga oshiriladi.

Diversifikatsiya natijasida turli-tuman tovarlar ishlab chiqaradigan, xizmat ko‘rsatadigan hamda ilmiy tadqiqot va ishlanmalar bilan band bo‘lgan keng tarmoqli, ammo hamisha ham texnologik jihatdan o‘zaro bog‘lanmagan majmualar (masalan, agrosanoat majmui, o‘rmonsanoat majmui) vujudga keladi va bu ishlab chiqarish diversifikatsiyasi deyiladi.

Bundan tashqari uning kredit diversifikatsiya ko‘rinishi ham bor (bunda kredit sifatida beriladigan kapital mablag‘lar xavf-xatarni kamaytirish va yuqori foyda olish maqsadida turli-tuman ob‘yektlar o‘rtasida taqsimlanadi). Bunday diversifikatsiya tarmoklararo kapital konsentratsiyasi jarayoni va korxonalararo ichki beqarorlikning kuchayishi bilan bog‘liq.

Dunyo mamlakatlarida diversifikatsiya jarayoni XX asrning 50-yillari o‘rtalaridan rivojlana boshladi. Dastlab AQSH²¹ Yaponiya²² G‘arbiy Yevropa davlatlarida diversifikatsiya sanoat, transport, qurilish, moliya sohasida vujudga keladi. Shu bois diversifikatsiya harakteri mazkur davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy omillari, shuningdek, boshqa davlatlarga tegishli bo‘lgan umumiy omillar (ilmiy-texnika inqilobi, yuqori foyda uchun kurash, raqobat kurashi, texnik taraqqiyotdan qolib ketmaslik va boshqalar) bilan belgilanadi. Diversifikatsiyada firmalar, ayniqsa, monopol firmalar kup tarmoklilik tusini oladi. Ular avvalo ko‘p daromadli, tez rivojlanadigan sohaslar (masalan, elektronika, kimyo)da faoliyat boshlaydi. Kompaniyalar mahsulot ishlab chiqarish bilan birga, shu mahsulot uchun zarur bo‘lgan xom ashyoni ham o‘zlari tayyorlashga kirishadi. Mablag‘larni kam daromadli sohadan tejab ko‘p foyda beradigan tarmoklarga sarf etadilar.²³

²⁰ https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Ishlab_chiqarish#:~:text

²¹ https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Amerika_Qo%CA%BBshma_Shtatlari

²² <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Yaponiya>

²³ <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Diversifikatsiya>

Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash korxonalar uchun strategik ahamiyatga ega hisoblanib, uzoq muddatli barqarorlik va muvaffaqiyatni ta'minlashning asosiy vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Ekspert — tovarlarni chet ellik mijozlarga sotish bo'lib, bunda mazkur mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar mamlakatdan tashqariga chiqariladi.²⁴

Tovarlarni eksport qilish har qanday kompaniyaning tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy elementi bo'lib, tashqi bozorlarda sotish bozorlarini kengaytirishga yordam beradi. Korxonalar mahsulotlarini eksport qilish muhimligini ortiqcha baholab bo'lmaydi. Ekspert kompaniyaga daromadni oshirish, barqaror pul oqimi, mijozlar bazasini ko'paytirish, turli savdo maydonchalarida savdo qilish hisobiga xavflarni kamaytirish, potentsial sheriklar doirasini kengaytirish kabi afzalliklarni beradi. Biroq, bir qator omillar tufayli har bir kompaniya tashqi bozorlarni ochishga qodir emas. Ularning muhim muammolaridan biri kompaniya va xalqaro iqtisodiy munosabatlar ishtirokchilari o'rtasida samarali hamkorlikni tashkil etishdir. “Uztrade” AJ O'zbekistonni xalqaro bozorda namoyon etib, kompleks yondashuvni qo'llaydi va O'zbekiston korxonalariga eksport imkoniyatlarini kengaytirish va xalqaro ishbilarmonlik aloqalarini o'rnatishda yordam beradi. Ekspert operatsiyalari bilan bog'liq barcha masalalar bilan “Uztrade” AJ shug'ullanadi. Bundan tashqari, biz xorijiy pudratchilar bilan o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini o'rnatish va ular bilan bog'liq ko'plab xavflarni kamaytirish haqida g'amxo'rlik qilamiz. “Uztrade” AJ mahsulot eksporti jarayoniga kiritilgan soliq, bojxona, transport va boshqa barcha bosqichlarni o'z zimmasiga oladi. Xo'sh, sizning kompaniyangiz, shu bilan birga, foydani hisobga oladi, vaqtni tejaydi va xarajatlarni kamaytiradi. Ekspert operatsiyalarini amalga oshirish tartibi: Barcha bosqichlar iloji boricha sodda va tushunarli: Shunday qilib, jarayon boshida mahalliy ishlab chiqaruvchi bilan Komissiya shartnomasi, shuningdek, xorijiy xaridor bilan eksport shartnomasi tuziladi. Shartnoma egasi “Uztrade” AJ bo'ladi, lekin tovar eksportchisi/jo'natuvchisi odatda mahalliy ishlab chiqaruvchi hisoblanadi. Ushbu bosqichda biz bitimning barcha tomonlarini shartnoma orqali huquqiy xavfsizlik va huquqiy himoya bilan ta'minlaymiz, shuningdek, tomonlar o'rtasidagi muzokaralarda yordam beramiz. “Uztrade” AJ xorijlik xaridordan to'lovni qabul qiladi. Va barcha tomonlar xaridorning barcha talablariga javob beradigan tovarlar jo'natishga tayyor ekanligiga ishonch hosil qilgandan keyingina, pul mahalliy ishlab chiqaruvchiga (eksportyorga) o'tkaziladi. To'lov amalga oshirilgandan so'ng, Ekspert shartnomasi va Komissiya shartnomasi shartlariga muvofiq, mahsulotlarni jo'natish jarayoni boshlanadi. “Uztrade” AJ mahalliy ishlab chiqaruvchi (eksportchi)ga hujjatlarni rasmiylashtirish uchun so'rov yuboradi va ularni qabul qilib, bojxona rasmiylashtiruvchi va tashish uchun barcha hujjatlar paketini tayyorlaydi.²⁵

O'zbekistonda o'tgan yillar mobaynida eksport salohiyati.

²⁴ <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tovar>

²⁵ <https://uzinterimpeks.uz/c/R2FA1Empv2>

2017–2022 yillar mobaynida O‘zbekistonning eksport geografiyasi 16ta mamlakatga kengayib, bugungi kunda mahsulotlar 117ta davlatga eksport qilinmoqda. Tovar nomenklaturasida 2017 yildagi 179 xil mahsulot turi 2022 yilga kelib 200dan oshgan.

Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti (PMTI) ekspertlari 2017–2022 yillar oralig‘ida O‘zbekiston eksporti geografiyasi va tovar nomenklaturasida ro‘y bergan o‘zgarishlarni tahlil qildi.

Qayd etilishicha, hisobot davrida tovar va xizmatlar eksport qilinadigan mamlakatlar soni ham, tovar nomenklaturasidagi mahsulotlar turi ham ko‘paygan.

2017–2022 yillar mobaynida O‘zbekistonning eksport geografiyasi 16ta mamlakatga kengayib, bugungi kunda mahsulotlar 117ta davlatga yetib bormoqda. Xususan, Peru (3 mln 965,9 ming dollar), Albaniya (3 mln 196,3 ming dollar), Shimoliy Makedoniya (1 mln 454,7 ming dollar), Senegal (311,7 ming dollar), Mavrikiy (303,1 ming dollar) kabi mamlakatlarga ham mahsulotlarni eksport qilish yo‘lga qo‘yildi. Tovar nomenklaturasida 2017 yildagi 179 xil mahsulot turi 2022 yilga kelib 200 dan ortdi.

Shuningdek, paxta tolasi eksportidan voz kechilib, uning o‘rniga paxtadan tayyorlangan qo‘shilgan qiymati yuqori tovarlar eksporti yo‘lga qo‘yildi. Jumladan, umumiy qiymati 1 mlrd 613,5 mln dollarga teng bo‘lgan paxtadan yigirilgan ip, 644,9 mln dollarlik tayyor trikotaj va to‘qimachilik mahsulotlari, 242,8 mln dollarlik naqshli mato, 131,6 mln dollarlik gazlamalar, 78,1 mln dollarlik ipak va ipak mahsulotlari, 42,1 mln dollarlik gilam mahsulotlari eksport qilindi²⁶

Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Eksportni rag‘batlantirish agentligi - mahalliy eksport qiluvchilarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun vakolatli organ hisoblanadi. U eksport qiluvchilarga xalqaro ko‘rgazma-yarmarkalarda ishtirok etish, milliy mahsulotlar va brendlarni tashqi bozorlarga chiqarish hamda xalqaro standartlashtirish va xalqaro sertifikatlarni olish uchun sarflangan harajatlarni kompensatsiya qilib beradi.

Bundan tashqari, eksport qiluvchilar Agentlikka murojaat qilib, mahsulotni eksport bozorlariga tashish bilan bog‘liq xarajatlarning 50 foizigacha qoplash uchun kompensatsiya, shuningdek, sug‘urta xizmatlari eksport qiluvchilar tomonidan garov sifatida foydalanilgan taqdirda sug‘urta mukofotining kompensatsiyasini olishlari mumkin.²⁷

Mahsulot eksporti dasturi — bu mahsulotlarni chet elga eksport qilishni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash uchun yaratilgan davlat yoki xususiy sektor tomonidan ishlab chiqilgan dasturdir.

²⁶ <http://kun.uz/news/2023/02/21/ozbekiston-dunyoning-117ta-mamlakatiga-mahsulot-eksport-qilmoqda?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F02%2F21%2Fozbekiston-dunyoning-117ta-mamlakatiga-mahsulot-eksport-qilmoqda>

²⁷ <https://mintrans.uz/news/ozbekiston-respublikasi-prezidentining-eksport-faoliyatini-moliyaviy-qo'llab-quvvatlashni-yanada-kengajtirish-chora-tadbirlari-togrisida-gi-farmoni-haqida>

Bunday dasturlar kompaniyalarga global bozorga kirish va o'z mahsulotlarini chet elga muvaffaqiyatli eksport qilish uchun zarur vositalar bilan ta'minlaydi. Ko'pincha, bunday dasturlar davlatlar tomonidan iqtisodiy o'sish va eksport salohiyatini oshirish uchun amalga oshiriladi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz kerakki, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish pirovard mahsulotning turini ko'paytirish va uning sifatini yanada ortishiga xizmat qiladi. U mahsulotlarni eksport qilishda va yaxshiroq daromad keltirish va shu bilan birgalikda diversifikatsiyalash korxonalar uchun strategik ahamiyatga ega hisoblanib, uzoq muddatli barqarorlik va muvaffaqiyatni ta'minlashning asosiy vositasi bo'lib xizmat qiladi. Mahsulot eksporti mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va aholining yashash holatlarini yaxshilashga xizmat qiladi. U xalqaro bozorga chiqishga va muvaffaqiyatga erishishda asosiy kalit hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Ishlab_chiqarish#:~:text
2. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Amerika_Qo%CA%BBshma_Shtatlari
3. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Yaponiya>
4. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Diversifikatsiya>
5. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Tovar>
6. <https://uzinterimpeks.uz/c/R2FA1Empv2>
7. <http://kun.uz/news/2023/02/21/ozbekiston-dunyoning-117ta-mamlakatiga-mahsulot-eksport-qilmoqda?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F02%2F21%2Fozbekiston-dunyoning-117ta-mamlakatiga-mahsulot-eksport-qilmoqda>
8. <https://mintrans.uz/news/ozbekiston-respublikasi-prezidentining-eksport-faoliyatini-moliyaviy-qollab-quvvatlashni-yanada-kengajtirish-chorataadbirlari-togrisida-gi-farmoni-haqida>